PEDAGOGLARDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rustamova S.Sh., Eshmurodova Sh.O.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПЕДАГОГОВ

Рустамова С.Ш., Эшмуродова Ш.О.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMING CONFLICTOLOGICAL COMPETENCE IN TEACHERS

Rustamova S.Sh., Eshmurodova Sh.O.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Проведен анализ сущности и содержания конфликтов, возникающих в образовательной среде между ее субъектами. Рассматриваемый в статье феномен конфликтологической компетентности выступает в качестве приоритетного личностного свойства педагога, позволяющего ему продуктивно взаимодействовать с другими субъектами образовательного процесса, выстраивать траекторию конструктивного диалога на бесконфликтной основе.

Ключевые слова: *конфликт, педагог, студент, общение, эмоция, самоконтроль, образовательный процесс, интеллект, психическое здоровье.*

The article analyses the nature and content of conflicts arising in the educational environment between its subjects. The phenomenon of conflict competence discussed in the article is presented as a priority personal trait of a teacher, allowing them to interact productively with other subjects of the educational process and build a trajectory of constructive dialogue on a non-conflict basis.

Key words: *conflict, teacher, student, communication, emotion, self-control, educational process, intellect, mental health.*

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri – uzluksiz ta'lim jamoalarida sog'lom psixologik muhitni yaratish va bu orqali ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishdir. Chunki respublikamizning rivoji, istiqboli ko'p jihatdan ta'lim tizimi samaradorligiga va tayyorlanayotgan mutaxassislarning mahoratiga, yuqori intellektual darajasiga, ruhiy barqarorligiga bog'liqdir. Buning uchun esa pedagogik jamolarning ijtimoiy-psixologik muhitini, pedagoglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni sog'lomlashtirish va pedagoglarda psixologik tetiklik, o'z faoliyatlaridan qoniqish, undan g'ururlanish hissini shakllantirish talab etiladi.

Ma'lumki, pedagogik jarayon murakkab tuzulishga ega bo'lib, pedagog shaxsi va o'quvchi hamkorligiga asoslanib tashkil qiladi. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat jarayonidagi muloqot malakalariga bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, muloqot malakalaridan to'g'ri foydalanmaslik o'zaro bir-birini tushunmaslik turli ziddiyatli vaziyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Mazkur ziddiyatli vaziyatlarni aniqlash, oldini olishning psixologik mexanizmlarini o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yuzaga kelayotgan shaxslarao munosabtlaridagi nizolar, qiyinchilar shubhasiz ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar taxlili. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, pedagogik faoliyatda yuzaga kelayotgan nizoli vaziyatlarning aksariyati pedagoglarning shaxslararo munosabatlar, muomala psixologiyasi haqidagi psixologik-pedagogik bilimlarni bilmasliklari tufayli kelib chiqmoqda. Bu o'z-o'zidan pedagoglarning muomala, shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga taalluqli bo'lgan zamonaviy bilimlarni egallashlari zaruriyatini ko'rsatadi. Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarga bog'liq bo'lgan nizolarning ortib borishining yana bir sababi, bizningcha, jamiyatning, kishilar turmush tarzining va ular psixologiyasining o'zgarib borishiga bog'liq bo'lmoqda. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, biz pedagogik faoliyatdlagi nizolar muammosini ilmiy tadqiq etishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Pedagogik psixologiyaning murakkab pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan muammo inson kundalik faoliyatida to'qnash keladigan psixologik muloqot va undagi to'siqlar masalasi hisoblanadi. Muloqotdagi to'siqlardan tushunish, gapirib berish interpretatsiyasi va uning diolog ommaviy ko'rinishlari o'zi haqidagi dunyo sitseron tomonidan eslatib o'tilgan va tahlil qilingan. Bu muammo kommunikativ-axborot nazariyasi ijtimoiy- psixologik nazariya va kognitiv psixologiya kontekstida o'tgan asrining o'rtalaridan. D. Kata, L. Li, G. Lassvili, M. Anderson, Ye.S. Kuzmin, B.D. Parыgin, B.F. Lomov, Ya.L. Kolominskiy, Ye.A. Klimov va boqalar tomonidan maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan.

Konfliktning eng birinchi ta'riflaridan biri mashhur amerikalik tadqiqotchi L. Kozer tomonidan berilgan. U konfliktlar tabiatini ochib berishda yetarlicha ta'sir ko'rsatgan. L.Kozerga muvofiq, konflikt «o'z qiziqishlari va istaklarini qondirish, raqib maqsadlarini yo'qqa chiqarib, imkoniyatini cheklash, uni neytrallash imkonini beruvchi hokimiyat, status yoki vositalar yetishmovchiligi oqibatida vujudga kelgan kurashdir [1].

S.L. Rubinshteyn fikricha to'siq faoliyat jarayonini kelib chiqishi va uni tushunishni hisobga olish bilan muammoli sharoit va xarakat asosini kelib chiqish shartlaridan biridir. Pedagog faoliyatda u inson intellektual faoliyati faolligi natijasida qayda bo'lgan "to'siqlar" sharoitidan chiqib ketishning yangi vositasi va usulini topishni omili sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shu bilan pedagogik jarayondagi pozitiv va negativ funksisini ajratib o'tishdir [6].

Nizolarning pozitiv funksiyasi A.K. Markova fikricha ikkita ahamiyati mavjud a) indikator o'quvchi diqqatini jalb etish, masalan diqqatni o'quvchiga uning qiyinchiliklarida hatolarini ko'rsatib beradi; b) stimulashtiradigan, mobilizatsiya yuzaga kelgan nizolarni tahlil qilish va yengib o'tishda o'qituvchi faoliyatini faollashtiradi, malaka oshiradi. Bu jarayonda o'qituvchining hatoga nisbatan murakkab pedagogik yoki kommunikativ masalani noadekvat yechishi natijasi sifatidagi holatidagi ikkilanishi xarakterlidir. Ba'zilar bu faoliyatda xatoga yo'l qo'yishi mumkin emas, desalar, boshqalar buni zaruriy va qochib bo'lmaydigan deb xisoblaydilar.

Mazkur jarayonda A.K. Markova nizolarning negativ funksiyasini ham ajratib ko'rsatadi va u ham ikkita ahamiyatga ega; a) bosinqiroqli ya'ni qiyinchilikni bartaraf etish

sharoiti bo‘lmagan holda yoki o‘zida qoniqish bo‘lmagan vaziyatda masalan, o‘zini past baholash va boshqalar; b) destruktiv, buzuvchan qiyinchiliklarni to‘xtatishga faoliyatni buzilishiga maktabdan yoki soxosidan ketish kabilarga olib keladi. Mashhur polshalik sotsiolog Ya.S. Hepanskiy konfliktni insonlarning yo‘riqlari, maqsadlari va aniq predmet yoki vaziyatga nisbatan munosabati natijasida vujudga kelgan to‘qnashuv sifatida baholagan [2].

S.V. Kondraevning tadqiqotlarida pedagogning jamoadaoshlarini tushunishdagi rejasi va uning uchun xos bo‘lgan pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar o‘rganiladi. Pedagogning jamoadoshlarini tushunish darajasi pedagogik faoliyat darajasi bilan solishtiradi. Ko‘rinib turibdiki, faoliyati yuksak darajali o‘qituvchilarda ta’sir ko‘rsatish vositalari tashkiliy xususiyatdagi omillar birinchi o‘rinda turadi. Faoliyati past darajadagi o‘qituvchilarda esa tartib-intizom kuchliligi bilan ajralib turadi. Redagogik jamoa faoliyatini tashkil etishga yetarli e’tibor bo‘lmasa, oqibatda intizomni saqlashga ko‘p kuch va vaqt sarflashga to‘g‘ri keladi. Aynan bunday vaziyatlarda tashkiliy va uyushqoqlik yo‘lga qo‘yilgan jarayonda ro‘y beradi [7].

Pedagogning jamoadoshlariga verbal ta’sir ko‘rsatish turlari ham o‘qituvchining faoliyati darajasi va uning o‘quvchisini tushunish qobiliyati bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Faoliyati yuksak darajali o‘qituvchida 34 ta ta’sir ta’sir ko‘rsatish usullari mavjudligi, faoliyati past darajali o‘qituvchida esa atigi 24 ta usuli bo‘lishi aniqlandi. Faoliyat darajasi yuqori va past bo‘lgan o‘qituvchilar verbal ta’sir ko‘rsatishlari tizimi miqdor bilangina emas, balki sifat bilan farq qiladi.

S.V. Kondrateva yuqori darajali faoliyatli o‘qituvchilar ko‘proq quyidagi so‘z bilan ta’sir ko‘rsatish usullaridan foydalanishlarini aniqladi. (ahamiyatiga qarab): ko‘rsatma berish, ovozni balandligi, familiyasini aytish, rag‘batlantirish, xazil-mutoyba, faoliyati past darajali o‘qituvchilar ko‘pincha baland ovoz bilan gapiradilar yoki o‘quvchining ismi sharifini aytib murojaat etadilar, lekin xazillashish va rag‘batlantirishni kam qo‘llaydilar. Ular yo‘l ko‘rsatishdan yanada kamroq foydalanadilar, chunki bunday pedagoglar o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga ongli munosabatni tarkib toptirishdan ko‘ra ko‘proq tartib-intizomga chaqiradilar [3].

Shaxsning mojarolarga chidamlilik kompetensiyasining psixologik tarkibiy qismlariga kognitiv komponent, ijodiy fikrlash, ochiqlik, mojarolarga bardoshlilik, hissiy nazorat, hamkorlikdagi fikrlash tarzi, mulohazakorlik, o’zini o’zi boshqarish madaniyati va kommunikativ ko’nikmalar kiradi. Mojarolarga chidamlilik kompetensiyasining tarkibiy qismlarini aniqlashga yagona yondashuv yo’q, shuningdek, uning tarkibiy qismlarini aniqlash uchun yagona mezonlar ham mavjud emas. V.G. Zazykin “mojarolarga chidamlilik”ni shaxs va faoliyatning professional jihatdan ahamiyatli jihatining kognitiv-tartibga solish kichik tizimi sifatida ko’rib chiqadi, bu esa mojarolarni oldindan ko’ra bilish, ularni samarali boshqarish, ularni ob’ektiv hal qilish va mojarolarning salbiy ta’siri va oqibatlarini kamaytirish uchun mojaroli tomonlarga psixologik ta’sir ko’rsatish imkonini beradi. U tegishli ixtisoslashgan bilim va ko’nikmalarni o’z ichiga oladi [4].

N.I. Leonov konfliktologik kompetensiya murakkab, yaxlit rivojlanish va kommunikativ kompetensiyaning bir turi deb hisoblaydi, chunki u o’zining muhim sifat xususiyatlariga ega. Uning so’zlariga ko’ra, “konfliktologik kompetensiya - bu o’qituvchining professional jihatdan muhim, ijtimoiy-psixologik, operatsion va xulq-atvor xususiyatlarining tizimli, ko’p komponentli rivojlanishi bo’lib, ta’lim makonidagi ishtirokchilar o’rtasidagi nizolarni konstruktiv hal qilishga yordam beradi” [5].

Eksperimental tadqiqot

Pedagogik muloqot – o‘qituvchining o‘quvchi bilan muloqotda bo‘lishidir. Pedagogik muloqot ta’sirchanligi o‘qituvchining nazokati va muloqotchanlik qobiliyatining rivojlanganligi bilan belgilanadi.

O‘qituvchi talaba shaxsida muloqotchanlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini o‘rgatish maqsadida shaxsning komunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini o‘rganish test metodikalaridan foydalaniladi. Pedagoglarda muloqotchanlik qobiliyatlarini o‘rganish maqsadida shaxsning muloqotchanlik va tashkilotchilik qobiliyatarini o‘rganish metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik shuningdek o‘quvchilar o‘rtasida nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillarini o‘rganishdan iborat. Metodika savolnomasi 40 ta bo‘lib ulardan 20 tasi kommunikativ qobiliyatlarni o‘rganishga qaratilgan.

Unga ko‘ra aynan o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi nizoni kelib chiqishiga ulardagi muloqot rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkinligini o‘rganish maqsadida o‘rganildi. Natijalarni qayta ishlash qo‘yidagicha amalga oshiriladi ya’ni tekshiriluvchilarni javoblarini deshifrator bilan solishtirib kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlariga mos kelgan varianti hisoblab chiqiladi. Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini baholash koeffitsenti quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi.

(Kk)q to‘g‘ri kelgan javoblarning soni x 0,05

(Kt)q to‘g‘ri kelgan javoblarning soni x 0,05

Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilindi (jadval).

Jadval

Miqdoriy tahlil natijalari, %

Sinaluvchilar	Juda yuqori	Yuqori	O‘rta	O‘rtadan past	Past
O‘qituvchi	11	22	33	16	18
Talaba	4	8	24	30	34

Jadval natijalariga asoslanib quyidagicha sifat tahlil amalga oshiriladi. Ya’ni, sinaluvchilarning 18% va 33% ida natijalar past ko‘rsatkichga ega ekanligi bilan belgilanib ularda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari past ekanligi bilan belgilanadi. Ularda muloqotga kirishish nisbatan tortinchoqlik atofdagilarga qo‘shilmaslik kabi sifatlar ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, sinaluvchilarda atrofdagilarni uyushtira olish jamoani jipslashtirish holatlari kuzatiladi. Shuningdek muloqotchanlikning yetishmasligi talabalar bilan munosabat o‘rnatishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

O‘rtadan past ko‘rsatkich o‘qituvchilarda 16% bilan ustunlikni kasb etsa talabalarda 30% ni tashkil qiladi. Bu sinaluvchilarda kommunikativ va tashkilotchilik qobili-

yatlari o‘rtadan past darajani tashkil qiladi. Ularda muloqotga intilish kuchli darajada namoyon bo‘lmaydi, ya’ni guruhda o‘zini erkin tuta olmaydi vaqtni yolg‘iz o‘tkazishni afzal ko‘radi, o‘zlarini tanishuvlarini chegaralab quyadi, odamlar bilan muloqot o‘rnatishga va auditoriya oldida gapirishga qiynaladi, ko‘p ishlarda mustaqil qaror qabul qilishda chetga tortishni afzal ko‘radi.

Sinaluvchilar orasida o‘rtacha ko‘rsatkich 33% va 24% ni tashkil qiladi. Unga ko‘ra kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari o‘rta darajani tashkil qiladi. Ular odamlar bilan muloqot o‘rnatishiga intiladi, o‘zlarini tanishishlarini sonini chegaralanmaydi, o‘z fikrini himoya qila oladi, ishlarini rejalaydi lekin qobiliyatlarini yuqori turg‘unlik bilan ta’riflanadi. Ular malakalarini oshirish maqsadida o‘z ustilarida ishlashlari nutq boyliklarini to‘ldirib borishlari lozim. Shuningdek o‘zlaridagi tashkilotchilik qobiliyatlarini o‘stirish uchun shaxs sifatlarini tarbiyalab borishlari kerak.

Ayniqsa sinaluvchilar orasida kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari 22% va 8% ida yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Unga ko‘ra ular yangi vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmaydi, atrofdagildar bilan juda tez chiqishadi tanishuvlar darajasini har doim kengaytirishga intilishadi, jamoat ishlari bilan shug‘ullanadi, yaqinlari va do‘stlariga yordam beradi jamoat tadbirlarini tashkil qilishda qatnashadi, og‘ir vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladi ular uchun biror narsani qilishda aytish ham majburlash ham shart emas balki bunga ular o‘z ishtiyoqlari intilishlari bilan yondashishga harakat qiladilar.

Juda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan pedagoglar muloqot va tashkiliy faoliyatga katta ehtiyojni his etadilar va shunga faol intilishadi, og‘ir vaziyatlarda tez yo‘l topa olishadi. Yangi jamoada o‘zini erkin tutishadi, tashabbuskor muhim ishda yoki murakkab vaziyatda mustaqil qaror qabuldi qilishni afzal ko‘radi, o‘z fikrini himoya qila olishadi do‘stlari ularning fikrlari bilan ish tutishlariga intiladi, notanish jamoaga jonlanish kirgiza olishadi har xil o‘yinlarni tashil qilishni yaxshi ko‘rishadi. O‘zlarining kommunikativ va tashkilotchilik faoliyatlarini qoniqtiradigan ishlarni izlab yurishadi,

Metodika natijalaridan ko‘rinadiki shaxsda muloqatchanlikni yuqori darajada rivojlanganligi ta’lim jarayonida yuzaga keladigan turli noxush vaziyatlarni oldini olish ikoniyatini beradi. Shuningdek, o‘quv faoliyatini samarali bo‘lishiga ayniqsa o‘qituvchi va talabaning o‘rtasidagi hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga, nizolarni konstruktiv usullar bilan xal qilib, talabalar bilan do‘stona munosabatlarni o‘rnatishga sabab bo‘ladi.

Xulosa

1. Kompetensiya o’qituvchilarga madaniyatli muloqotni o’rnatish, tegishli xulq-atvor strategiyalarini tanlash va nizolarni samarali hal qilish imkonini beradi, bu esa muvaffaqiyatli professional faoliyatning kalitidir.Pedagogik faoliyatdagi nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganish natijalariga ko‘ra quyidagi xuloslarga keldik:

2. Pedagogik faoliyatdagi nizolar juda ko‘plab ijtimoiy-psixologik omillar bilan bir qatorda pedagogik faoliyatda o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish va shaxslararo munosabtlar uslubiga bog‘liqdir.

3. Pedagogik faoliyatdagi nizolar pedagogik jamaoa xususan, o‘qituvchi va talabalarning muloqotchanlik sifatlari darajasi hamda muomala va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi to‘g‘risdagi psixologik-pedagogik bilimlar drajasiga bog‘liq ekanligi kuzatiladi.

4. Pedagogik faoliyatdagi nizolar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarning amalga oshirilish xususiyatlari va uning ikki tomonlama maqbulligiga bog‘liqdir.

Adabiyotlar

1. Гришина НВ. Психология конфликта. СПб Питер 2000:464.
2. Елсукова АМ. История социологии. Минск Высш шк 1997:215.
3. Ефимова НС. Психология общения. Практикум по психологии. Учеб пособие. М ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М 2006:192.
4. Зазыкин ВГ., Карпенко АС. Психологическая компетентность руководителя. М 2008:376.
5. Леонов НИ. Конфликтологическая компетентность педагога // Психология образования в XXI веке: теория и практика. Материалы Меджунар. науч-практ конф. к 80-летию Волгогр. гос. сос.-пед. ун-та. Волгоград 2011:425-428.7
6. Рубинштейн СЛ. Основы общей психологии. М Учпедгиз 1957: 676-677.
7. Чалдини Р. Психология влияния. СПб Питер 2004:286.

PEDAGOGLARDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rustamova S.Sh., Eshmurodova Sh.O.

Maqolada ta’lim muhitida uning ishtirokchilari o’rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarning mohiyati va mazmuni tahlil qilinadi. Maqolada muhokama qilingan ziddiyat kompetentsiyasi hodisasi o’qituvchining ustuvor shaxsiy xususiyati sifatida taqdim etilgan bo’lib, u unga ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali muloqot qilish va ziddiyatsiz asosda konstruktiv dialog yo’lini ochish imkonini beradi.

Kalit so’zlar: *mojarolar, o’qituvchi, talaba, muloqot, hissiyot, o’zini-o’zi nazorat qilish, ta’limiy jarayon, aql, ruhiy salomatlik.*

Mualliflar haqida ma’lumot

Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna, TDTU o‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi katta o’qituvchisi. Tel: +998977306979, e-mail: surayyo.6979@gmail.com, https://orcid.org/0009-0009-3460-9539

Eshmurodova Shirin Oybek qizi, TDTU o‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi assistenti. Tel: +998977306979, e-mail: saipovashirin118@gmail.com